

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

ASLANOV BOBUR TUXTAYEVICH

**HUQUQBUZARLIKLAR SODIR ETISHGA MOYIL SHAXSLAR BILAN
ISHLASH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH
(ICHI ISHLAR ORGANLARI MISOLIDA)**

**12.00.14 – Huquqbuzarliklar profilaktikasi. Jamoat xavfsizligini ta’minlash.
Probatsiya faoliyati**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of the abstract of the dissertation of the doctor of philosophy (PhD)

Aslanov Bobur Tuxtayevich

Huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar bilan ishlash
faoliyatini takomillashtirish(ichki ishlar organlari misolida)..... 5

Асланов Бобур Тухтаевич

Совершенствование деятельности по работе с лицами склонными к
совершению правонарушения (на примере органов внутренних дел)..... 27

Aslanov Bobur Tuhtayevich

Improving the work with individuals prone to committing offenses enhancing
activities (using the example of internal affairs agencies)..... 53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 58

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.31/30.12.2019.Yu.25.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

ASLANOV BOBUR TUXTAYEVICH

**HUQUQBUZARLIKLAR SODIR ETISHGA MOYIL SHAXSLAR BILAN
ISHLASH FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH
(ICHI ISHLAR ORGANLARI MISOLIDA)**

**12.00.14 – Huquqbuzarliklar profilaktikasi. Jamoat xavfsizligini ta’minlash.
Probatsiya faoliyati**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Yu1005 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasi (<http://www.dba.uz/tadqiqotchilarga/ilmiy-kengash>) ba “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ismailov Isamiddin
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ziyodullayev Muzaffar Ziyodullayevich
yuridik fanlar doktori, professor

Abdurasulova Qumrinisa Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

**O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar
vazirligi Malaka oshirish instituti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi (DSc) 31/30.12.2019.Yu.25.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 30-aprel kuni soat 14:30 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68. Tel./faks: (+99871) 265-22-52; e-mail: info@akadmvd.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (AD 1516-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100197, Toshkent sh., Intizor ko‘chasi, 68. Tel.: (+99871) 265-22-52.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 10 aprel kuni tarqatildi.
(2025-yil 10-aprel kuni 10 - raqamli reestr bayonnomasi).

A.S. Tursunov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, yuridik fanlar doktori, professor

A.D. Xusanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Sh.A. Kulmatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik
fanlar doktori, professor

KIRISH (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan aholining muayyan bir qismida, ayniqsa hayotda vujudga kelayotgan obyektiv va subyektiv qiyinchiliklar ta'siri ostiga tushib qolayotganlar orasida huquqbuzarlik sodir etishga moyillik shakllanishi oshib bormoqda. Buning oqibatini jamiyatda jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan shaxslar soni ko'payib borayotganligida ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. Xususan, 2024-yilda jazoni ijro etish muassasalarida 11,5 million mahkumlar saqlanmoqda. Jumladan, AQShda 1,8 million, Xitoyda 1,7 million, Braziliyada 840 ming, Hindistonda 573 ming, Rossiya Federatsiyasida 433 ming, Turkiyada 314 ming nafardan to'g'ri keladi¹. O'zbekistonda jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan 40 ming nafarga yaqin mahkumlar mavjud bo'lib², ularning soni har 100 ming aholiga nisbatan 68 nafarni tashkil etmoqda³. Mahkumlar sonining yuqoriligi *birinchidan*, ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlar oqibatida shaxs, jamiyat va davlatga zarar yetkazilishini oshiradi, *ikkinchidan*, ularga nisbatan jazoning muqarrarligini ta'minlash tizimiga sarf-xarajatni (kuch va vositalarni) ko'payishiga olib keladi, *uchinchidan*, jazoni ijro etish tizimiga mablag'lar sarflanishining yanada oshishini taqozo etadi. Masalan, AQShda har yili penitensiar tizimini saqlab turish uchun 80 milliard dollar soliq to'lovchilarning mablag'i sarflanadi⁴. Bu miqdor Rossiyada mahkumlarni saqlash uchun 4,2 milliard dollar, Buyuk Britaniyada 4 milliard dollar, Germaniyada 3,5 milliard dollar, Italiya va Fransiyada esa 2,9 milliard dollarni tashkil etmoqda⁵.

Jahonda jinoyatchilikning oldini olish, shu jumladan, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslarga nisbatan profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirishning holati davlatlarning xalqaro maydondagi reytingini belgilaydigan, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, shuningdek, ularning tahdid va tajovuzlardan himoyalanganlik darajasini ko'rsatadigan asosiy mezonlardan biridir. Shu sababli, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslarni aniqlash, ularga nisbatan profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish, mazkur toifadagi shaxslar bilan ishlash sohasidagi muammolar hamda yechimlarni topishga qaratilgan ilmiy izlanishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonda so'ngi yillarda huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir bir qancha normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilingan bo'lib, bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2022 – 2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida Jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish strategiyasini 2023-yilda amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni tasdiqlash

¹ //URL: [https://www.icpr.org.uk/news-events/2024/prison-populations-continue-rise-many-parts-world-115-million-held-prisons#:~:text=Some%2011.5%20million%20people%20are,\(ICPR\)%2C%20at%20Birkbeck%2C](https://www.icpr.org.uk/news-events/2024/prison-populations-continue-rise-many-parts-world-115-million-held-prisons#:~:text=Some%2011.5%20million%20people%20are,(ICPR)%2C%20at%20Birkbeck%2C)

² //URL: <https://daryo.uz/k/2024/10/27/jazoni-ijro-etish-muassasalarida-40-mingdan-ortiq-mahkumlar-ovoz-berishda-ishtirok-etadi-ichki-ishlar-vaziri-orinbosari>.

³ //URL: <https://aniq.uz/yangiliklar/uzbekistonda-jazo-muddatini-utayotgan-mahkumlar-soni-har-100-ming-aholiga-hisoblaganda-68-nafarni-tashkil-etmoqda>

⁴ //URL: <https://ru.wikipedia.org/wiki/>

⁵ В России сидят долго и дешево. Совет Европы отчитался о тюремной статистике. //URL: <https://www.bbc.com/russian/news-56674300>.

to'g'risida"gi 121-sonli qarorida "Ma'muriy nazorat va profilaktik hisob institutlari negizida "profilaktik nazorat institutini" joriy qilish nazarda tutilgan. Unda: a) ma'muriy nazorat va profilaktik hisob institutlarini bekor qilish orqali profilaktik nazorat institutini kiritish; b) profilaktik nazoratdagi shaxslarga belgilanadigan majburiyatlar va cheklovlarni qisman va to'liq qo'llash asoslarini belgilash nazarda tutilgan"⁶. Mazkur institutning joriy etilishi nazorat va hisobdagi shaxslarning huquqbuzarlikka moyilligini aniqlash va ularning g'ayriijtimoiy xatti-harakatlarini umumiy tarzda nazorat qilish lozimligi inobatga olingan bo'lsa-da, bu borada takror sodir etilgan jinoyatlarning soni "2024-yilda⁷ 454 418 ta profilaktika hisobida bo'lgan 1489 nafar hamda 21 829 ta ma'muriy nazoratda turgan 920 nafar shaxslarning xissasiga to'g'ri kelayotganligi bois", ular bilan ishlashga oid masalalarni ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan kompleks va har tomonlama chuqur tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi (1995-y.), O'zbekiston Respublikasining "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi (2010-y.), "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi (2014-y.), "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi (2016-y.), "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi (2021-y.), "Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazorat to'g'risida"gi (2019-y.), "Psixiatriya yordami to'g'risida"gi (2021-y.), "Probatsiya to'g'risida"gi (2024-y.), "Narkologik kasalliklar profilaktikasi va ularni davolash to'g'risida"gi (2020-y.) Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2021-y.), "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi (2019-y.) va "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari (2022-y.), "Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori (2017-y.), shuningdek, boshqa qonunosti hujjatlarning ijrosini amalga oshirish uchun ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar bilan ishlash faoliyatining ayrim jihatlari mamlakatimizda quyidagi mualliflarning ilmiy ishlarida muayyan darajada tadqiq etilgan. Shu jumladan,

⁶ //URL:<https://lex.uz/docs/6411327>.

⁷ O'zbekiston Respublikasi IIVning Huquqiy statistika va tezkor-hisob ma'lumotlar markazining statistik malumoti.

huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati bo'yicha: H.E. Axmedov, Sh.X. Aliyev, N.U. Ashurova, Z.A. Amirov, M.Z. Ziyodullayev, B.I. Latipov, N.S. Salayev, S.B. Xo'jaqulov, M.J. Eshnazarov, G'.S. Qarshiyev, Sh.A. G'aniyev va Sh.R. G'ofurov; *tezkor-qidiruv faoliyati bo'yicha:* N. Bekmurodov, S.N. Gordeyev, X.M. Nabiyev, Z. Rasulov va Sh. Pulatov; *kriminologik jihatlari:* Q.R. Abdurasulova, U.A. Abdug'aniyev, A.G. Zakirova, Z.S. Zaripov, I. Ismailov, A.S. Tursunov, I.Yu. Fozilov, M.Q. O'razaliyev va D.Yu. Karaketova; *viktimologik jihatlari:* A.Sh. Murodov, S.S. Niyozova va Q.A. Saitqulov; *jinoiy-huquqiy jihatlari:* G.O'. Axmedova, Sh.O. Azimov, D.G. Kamalova, O.M. Mahkamov, J.S. Muxtorov, M.S. Muqumova, A.A. Otajonov, R. Kabulov, A.K. Rasulev, M.X. Rustambayev, F. Taxirov, M. Usmanaliyev, D.X. Xamidov va N.B. Qurbonov; *psixologik jihatlari:* R.X. Dushanov, I.X. Kalonov, B.N. Sirliyev, A.T. Turg'unova va M.X. Fayziyevlar tomonidan dissertatsiyaviy tadqiqotlar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ilmiy maqolalar va darsliklar doirasida o'rganilgan.

Xorij olimlari R.A. Arslanbekova, G.A. Avanesov, A.A. Alekseyeva, A.I. Alekseyev, A.M. Attayev, E.P. Abovyan, Y.M. Antonyan, D.N. Baxrax, Q.S. Belskiy, V.L. Vasilyev, D.V. Vasilyev, Y.A. Voronin, B.V. Voljenkin, A.A. Grebenkov, A. Golovkina, A.A. Grebenkov, D.M. Galushko, S.G. Dzikonskaya, V.V. Zritnyev, A.P. Kamishnikov, A. Kettle, D.M. Kafarova, V.K. Kolpakov, V.I. Kangin, A.F. Lazurskiy, A.N. Larkov, Ch. Lombrozo, K.I. Maslennikov, O.A. Martinenko, N.E. Martinko, G.M. Minkovskiy, V.I. Morozov, A.F. Matyunin, E.E. Musatova, V.V. Nagayev, N.D. Nechevina, Z.Z. Nurilloeva, O.A. Petryanina, A.D. Polishuk, A.N. Pastushenyan, L.V. Pavlova, A.R. Ratinov, B.O. Sarmanova, Y.A. Samsonenko, R.A. Semenyuk, V.V. Tatyannin, X.A. Xasmamedov va I.P. Yablokov kabi olimlarning ilmiy nazariyaga oid qarashlari tadqiq etilgan.

Mamlakatimizda huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar bilan ishlash faoliyatiga, amaldagi qonunchilik normalariga va ushbu faoliyat bilan bog'liq muammolarga doir maxsus ilmiy tadqiqot amalga oshirilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida ilmiy-tadqiqot ishlarni rivojlantirishning 2024-2025-yillarga mo'ljallangan istiqbolli dasturi"ning "Ichki ishlar organlarining huquqbuzarlik profilaktikasi faoliyatini takomillashtirish" ilmiy-tadqiqotlarining ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar bilan ishlash faoliyatini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslarlar tushunchasi va tasnifini ishlab chiqish;

huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlarining huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslar bilan ishlash faoliyatidagi muammolarini aniqlash va ularni tahlil qilish;

huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslarning tuzalish yo'liga o'tganligini tasdiqlovchi mezonlarini va ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlarining ularni qo'llash amaliyotini takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlash;

ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlarining huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar bilan ishlash bo'yicha hamkorlikdagi faoliyatini tahlil qilish va ularni hal etish yo'nalishini aniqlash;

huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar bilan profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha ayrim xorijiy mamlakatlar tajribalarini tahlil qilish;

huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar bilan ishlash faoliyatini takomillashtirish istiqboli bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslarni aniqlash va ular bilan profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-huquqiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar bilan ishlashga oid nazariy yondashuvlardan, shu sohadagi faoliyatni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlardan, ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlarining amaliyotidan, shuningdek xorijiy davlatlarning tajribalaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar bilan ishlash faoliyatini tadqiq etishda analiz-sintez, deduksiya va induksiya, mantiqiylik, qiyosiy-huquqiy tahlil, anketa so'rovlari, statistik ma'lumotlar tahlili, kuzatish kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar bilan ishlashni tashkil etishni "Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati" va "Kriminologiya" fanlari bo'yicha ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda, shuningdek ushbu fanlar doirasida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida unumli foydalanishi lozimligi asoslantirildi;

shaxsga nisbatan uning uchun nomaqbul bo'lgan hamda uning sha'ni va qadr-qimmatini tahqirleydigan, shaxsning tashqi qiyofasini yoki qaddi-qomatini tavsiflashda, imo-ishora qilishda, teginishda, chaqirishda ifodalangan, shahvoniy xususiyatga ega bo'lgan harakatlarni sodir etganligi uchun ma'muriy javobgarlik belgilanishi isbotlandi;

probatsiya nazoratidagi shaxsga nisbatan elektron kuzatuv vositasini (elektron braslet) ozodlikni cheklash tarzidagi jazoni o'tash tartibi talablarini bajarmayotganligi to'g'risida rasmiy ravishda ogohlantirilgan yoki ozodlikni cheklash tarzidagi jazoni o'tash davrida jamoat tartibini buzish bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikka tortilgan probatsiya nazoratidagi shaxsga nisbatan tuman (shahar) probatsiya bo'linmasi boshlig'ining qarori asosida qo'llanilishi lozimligi, uning muddati qancha bo'lishi kerakligi asoslantirildi;

ruhiy holati buzilgan shaxslarga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash tartibi asoslantirildi.

Tadqiqotning amaliy natijasi asosida O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risidagi qonuniga tegishli o'zgarish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonun loyihasi ishlab chiqilgan bo'lib, loyihaga ko'ra:

3-moddaning birinchi qismiga quyidagi "huquqbuzarlik sodir etish xavfi yuqori bo'lgan shaxs", "huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxs", va "tuzalish yo'liga o'tgan shaxs" tushunchalarining yangi tahrirda bayon etilishi kelgusida ichki ishlar organlari sohaviy xizmat subyektlarining yuqoridagi shaxslar bilan huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshirish bilan bog'liq muammolarini bartaraf etishga;

yangi 34¹-modda bilan to'ldirilishi huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslarni bevosita va bilvosita profilaktik kuzatuvga olish va uni amalga oshirishga xizmat qilishga;

quyidagi 42-moddasi ikkinchi qismi bilan to'ldirilishi "o'ziga nisbatan huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi chora-tadbirlari qo'llanilayotgan shaxslar"ning huquq va majburiyatlarini qayta ishlab chiqish, ularga nisbatan profilaktik hisob va ma'muriy nazorat yig'ma jildlarini samarali rasmiylashtirilish va ta'sirchan profilaktik chora-tadbirlarni taminlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining "Probatsiya to'g'risida"gi qonuniga "Probatsiya nazoratidagi tuzalish yo'liga o'tgan shaxs" tushunchasi bilan to'ldirilishi kelgusida probatsiya bo'linmalarining nazorati ostidagi huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslar bilan ishlashni huquqiy tartibga solishni takomillashtirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining "Obod va xavfsiz mahalla" tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2024-yil 30-noyabr kunidagi 801-sonli qaror nizomining 5-bob. Yakunlovchi qoidalariga yangi 33-bandi sifatida ichki ishlar organlari tezkor vakillarining ijtimoiy profilaktika chora-tadbirlarini amalga oshiruvchi subyektlarga o'z vaqtida ko'maklashib borilishini ta'minlanishi mahalla hududlarida huquqbuzarliklarning kamayishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, ularni qo'llash amaliyotidagi ilg'or tajribalar, sotsiologik (anketa so'rovi, intervyu olish) tadqiqotlar, statistik ma'lumotlar tahlili, xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o'tgan, tadqiqot natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan, olingan natijalar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan hamda ular amaliyotga joriy etilgan, sotsiologik tadqiqotlar (426 nafar mutaxassis xodimlar (shu jumladan, 112 nafar tergovchilar, 205 nafar profilaktika inspektorlar, 109 nafar tezkor vakillar), shuningdek (1019 nafar jazoni ijro etish muassasalarida muddatini o'tayotgan mahkumlar) o'rtasida ijtimoiy so'rov o'tkazildi, hamda 200 dan ortiq ma'muriy nazorat va profilaktik hisobga olingan, axloq tuzatish ishlari, majburiy jamoat ishlari va shartli hukm qilingan shaxslarga nisbatan yuritilgan yig'ma jildlar tahlili)

natijalarini umumlashtirish orqali asoslantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati ilmiy-nazariy xulosa, taklif va tavsiyalardan mavzuga oid xalqaro huquqiy normalar, milliy qonun hujjatlari va ularni qo'llash amaliyotini takomillashtirishda, tegishli qonun normalarini sharhlashda, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati", "Ichki ishlar organlarining profilaktik faoliyati", "Kriminologiya", "Viktimologiya" fanlarini ilmiy-nazariy jihatdan yanada boyitishda, yangi ilmiy-tadqiqotlarni olib borishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi qonunlarni takomillashtirish va huquqni qo'llash amaliyoti samaradorligini oshirishga, shuningdek huquqbuzarliklar profilaktikasi subyektlarining faoliyatini tartibga solishga oid normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar bilan ishlash faoliyatini takomillashtirish yuzasidan olingan natijalar asosida:

huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar bilan ishlashni tashkil etishni "Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati" va "Kriminologiya" fanlari bo'yicha ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda, shuningdek ushbu fanlar doirasida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida unumli foydalanishi lozimligi asoslantirilgan (O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi 38/8-89-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklif ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar toifalarni o'z vaqtida aniqlash va ularga nisbatan ta'sirchan profilaktik chora-tadbirlarning olib borilishiga xizmat qiladi;

shaxsga nisbatan uning uchun nomaqbul bo'lgan hamda uning sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlaydigan, shaxsning tashqi qiyofasini yoki qaddi-qomatini tavsiflashda, imo-ishora qilishda, teginishda, chaqirishda ifodalangan, shahvoniy xususiyatga ega bo'lgan harakatlarni sodir etganligi uchun javobgarlik belgilash haqidagi taklifi 2023-yil 11-apreldagi "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ – 829-son Qonunning 5-moddasi 6-bandi (Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 41¹-moddasi)ni shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 19-yanvardagi 01/q-08-24-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklif huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar bilan ishlashning huquqiy asoslarini takomillashtirishga hamda aholining huquqbuzarliklardan jabrlanib qolish ehtimoli holatlarini kamayishiga xizmat qiladi;

probatsiya nazoratidagi shaxsga nisbatan elektron kuzatuv vositasini (elektron braslet) ozodlikni cheklash tarzidagi jazoni o'tash tartibi talablarini bajarmayotganligi to'g'risida rasmiy ravishda ogohlantirilgan yoki ozodlikni cheklash tarzidagi jazoni o'tash davrida jamoat tartibini buzish bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikka tortilgan probatsiya nazoratidagi

shaxsga nisbatan tuman (shahar) probatsiya bo‘linmasi boshlig‘ining qarori asosida qo‘llanilishi lozimligi, uning muddati qancha bo‘lishi kerakligi haqidagi takliflaridan 2024-yil 7-avgustdagi O‘zbekiston Respublikasining “Probatsiya to‘g‘risida”gi O‘RQ–938-son Qonunining 33-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 15-avgustdagi 03/08-142-sonli ma‘lumotnomasi). Ushbu taklif probatsiya nazoratidagi shaxslarni masofadan kuzatish va ularning tartib-qoidalariga o‘z vaqtida amal qilayotganligini tekshirib turishga xizmat qilgan;

ruhiy holati buzilgan shaxslarga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llash tartibini takomillashtirishga oid takliflaridan 2021-yil 12-maydagi O‘zbekiston Respublikasining “Psixiatriya yordami to‘g‘risida”gi O‘RQ-690-son Qonunining 16-moddasi ikkinchi qismini shakllantirishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 20-dekabrda 03/08-257-sonli ma‘lumotnomasi). Ushbu taklif ruhiy holati buzilgan shaxslar tomonidan sodir etilishi kutilayotgan jinoyatlarni oldini olishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari jami 13 ta (5 ta xalqaro, 8 ta respublika miqyosida) ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatsiyasidan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan tadqiqotning asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy nashrlarda 13 ta, xalqaro jurnallarda 3 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, yettita paragrafni o‘z ichiga olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iboratdir. Ishning hajmi 156 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinganligi, aprobatsiyasi, tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning **“Huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar tushunchasi, tasnifi va ular bilan ishlashning o‘ziga xos xususiyatlar”** deb nomlangan bobida huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslarning tushuncha va toifalarini aniqlash va ular bilan ishlashning o‘ziga xos xususiyatlarini shu sohada xizmat qilgan olimlarning fikr-mulohazalari, statistik ma‘lumot natijalari hamda amaliyot materiallari tahlillari asosida yoritib berilgan.

Mazkur bobning birinchi paragrafi *“Huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar tushunchasi va tasnifi”* deb nomlanib, unda huquqbuzarliklar sodir

etishga moyil shaxslarning tushuncha va toifalarining ma'no va mazmunini yoritishda o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar asosida shartli ravishda uch guruhga, "biofiziologik", "ma'naviy-axloqiy" va "psixologik" yondashuvlarga ajratgan holda ularning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

Dissertant tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlar, sotsiologik so'rovnomalar va qonun hujjatlari tahliliga asoslanib, huquqbuzarlik sodir etishga moyillikni uch toifaga: "huquqbuzarlik sodir etish xavfi yuqori", "huquqbuzarlik sodir etishga moyil" va "huquqbuzarliklar sodir etish ehtimoli past bo'lgan shaxslar"ga ajratgan.

O'tkazilgan tadqiqotlarda, sotsiologik so'rovnoma ishtirokchilari jinoiy daromadlarni tirikchilik manbai sifatida kasb qilib olganlarni – *huquqbuzarlik sodir etish xavfi yuqori* (64 %); shaxsning turli zararli yot g'oyalari ta'siriga tez beriluvchanligi va ularga yengil ergashadiganlarni – *huquqbuzarlik sodir etishga moyil* (47 %); mahallalarda ijtimoiy profilaktikaga ehtiyojmand bo'lganlarni – *huquqbuzarliklar sodir etish ehtimoli past bo'lgan shaxslar* (52 %) toifalari ekanligi tasdiqlashdi.

Tadqiqotchi yuqoridagi tahlillarga va shu yo'nalishda faoliyat olib borgan milliy olimlar: Q.R. Abdurasulova, X.E. Axmedov, A.G. Zakirova, I. Ismailov va R.X. Dushanovlar; Xorij olimlaridan: Yu.M. Antonyan, G.A. Avanesov, E.P. Abovyan, L.D. Gauxmalarining ilmiy nazariyaga oid qarashlariga asoslanib, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar tushunchalariga quyidagi mualliflik ta'riflarini bergan. Xususan: *huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxs* – bu, g'ayriijtimoiy xulq-atvoriga egaligi, shuningdek ijtimoiy, huquqiy va psixologik yordamga muhtojligi sababli ziddiyatli vaziyatlarda huquqbuzarlik sodir etishi mumkin bo'lgan jismoniy shaxs; *huquqbuzarlik sodir etish xavfi yuqori bo'lgan shaxs* – esa, jinoiy faoliyat turmush tarziga aylangan, jinoiy urf-odat va an'analarga rioya etuvchi, shuningdek sud tomonidan o'ta xavfli retsidivist deb topilgan jismoniy shaxs.

Dissertatsiya ishi davomida huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar toifalari alohida tartibda tizimlashtirilib, huquqbuzarlik sodir etish xavfi yuqorilar 9 ta, huquqbuzarlik sodir etishga moyillar 8 ta va huquqbuzarliklar sodir etish ehtimoli past bo'lgan shaxslarni 4 ta guruhga ajratilgan.

Mazkur bobning ikkinchi paragrafi "*Huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari*" deb nomlanib, unda huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslarga nisbatan huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus va yakka turdagi profilaktik chora-tadbirlarini samarali qo'llash huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi subyektlarning mahoratiga bog'liqligi yoritib berilgan. Sotsiologik so'rovnoma ishtirokchilarining 70 % – "*ichki ishlar organlari sohaviy xizmat subyektlarining huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar bilan ishlashda huquqbuzarliklar profilaktikasining barcha turlarini alohida yondashgan holda qo'llash*" lozimligini ta'kidlashgan.

Dissertant ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlari va "Mahalla yettiligi" subyektlarining vakolat va vazifalarining mazmun-mohiyatidan kelib chiqqan holda, ularning nazoratidagi: 1) huquqbuzarliklar sodir etish xavfi yuqori, 2) huquqbuzarlik sodir etishga moyil, 3) huquqbuzarliklar sodir etish ehtimoli past

bo‘lgan shaxslar bilan huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus va yakka turdagi profilaktik chora-tadbirlarini ta’sirchan olib borishning o‘ziga xos xususiyatlarini alohida tartibda yoritib bergan.

Bunda: a) Tezkor-qidiruv departamenti tizimida bo‘lgan: terrorizmga qarshi kurashish, giyohvandlik va psixotrop moddalarining noqonuniy muomalasiga qarshi kurashish, shuningdek jinoyat qidiruv bo‘limi tezkor vakillari – huquqbuzarlik sodir etish xavfi yuqori bo‘lgan shaxslarga nisbatan tezkor-qidiruv tadbirlarini tashkil etish kerakligi;

b) Jamoat xavfsizligi departamenti tizimida bo‘lgan profilaktika inspektori, probatsiya, patrul-post, yo‘l-patrul va jamoat tartibini saqlash xizmati xodimlari – huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslarga nisbatan huquqbuzarliklar profilaktikasining barcha chora-tadbirlarini ta’minlash lozimligi;

v) “Mahalla yettiligi” – huquqbuzarliklar sodir etish ehtimoli past bo‘lgan shaxslar (ijtimoiy profilaktika obyektlari) bilan ijtimoiy profilaktika chora-tadbirlarini olib borilishining dolzarb ekanligini asoslantirgan.

Tadqiqotchi shu yo‘nalishda faoliyat olib borgan milliy olimlar: Z.A. Amirov, Z.Zaripov, I. Ismailov, Sh.R. G‘ofurov, S.B. Xo‘jaqulov, va M.J. Eshnazarovlar; Xorij olimlaridan: A.M. Attayev, O.A. Martinenko va S.G. Dzikonskayalarning ilmiy nazariyaga oid qarashlariga asoslangan holda tezkor vakillar tomonidan huquqbuzarliklar sodir etish xavfi yuqori bo‘lgan shaxslarga nisbatan amalga oshirilishi shart bo‘lgan tezkor-qidiruv maxsus tadbirlarni 4 ta; o‘tkazilgan maxsus tadbirlar natijasida ushlab kelingan shaxslar bilan yakka tartibdagi tezkor suhbatlarni 5 ta; profilaktika inspektori tomonidan profilaktik hisob va ma’muriy nazoratdagi huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar bilan yakka tartibdagi suhbatlarni 7 ta va ijtimoiy profilaktika subyektlarining mahalla hududlarida huquqbuzarliklar sodir etish ehtimoli past bo‘lgan shaxslar bilan olib boriladigan chora-tadbirlarni 8 ta guruhga ajratgan.

Dissertantning fikricha, ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlarining ro‘yxat hisobida bo‘lgan, ilgari sudlanganlik muddati tamomlangan, ma’muriy nazorat, profilaktik hisob va probatsiya nazoratidan yechilgan, ammo o‘zlarida g‘ayriijtimoiy xulq-atvor va huquqbuzarlik sodir etishga moyillikni saqlab qolgan shaxslarga nisbatan “profilaktik kuzatuv” chora-tadbirlarini olib borish va uni amalga oshirish lozimligini taklif etgan. (*sotsiologik so‘rovga jalb etilganlarning 68 % – ushbu profilaktik chora-tadbirlarni ta’minlashni “ijobiy” baholashgan*).

Dissertatsiyaning **“Huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar bilan ishlash faoliyatining tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida ichki ishlar organlari tezkor-qidiruv, huquqbuzarliklar profilaktikasi, probatsiya xizmatlari va “Mahalla yettiligi” subyektlarining vakolatlari doirasida huquqbuzarliklarni ko‘rib chiqish, shuningdek huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar bilan maxsus va yakka tartibdagi profilaktik chora-tadbirlarni qo‘llash hamda ularning profilaktik hisobini yuritish va tugatishda uchrayotgan muammolarning yechimi yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mazkur bobning birinchi paragrafi *“Ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlarining huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar bilan ishlash faoliyatidagi muammolar va ularning yechimi”* deb nomlanib, unda ichki ishlar

organlari sohaviy xizmat xodimlari o'rtasida profilaktik chora-tadbirlarni tashkil etishda uchrayotgan quyidagi muammolar aniqlangan:

birinchidan; a) tezkor vakillar tomonidan ish ko'rsatgichlarini tezroq ko'tarib olish, shuningdek ish hujjatlarning muddatlari tugayotgani uchun rahbaridan tanbeh olmaslik bahonasida kamchiliklar bilan topshirish holatlari; b) fuqarolar tomonidan ichki ishlar organlariga jinoyat haqidagi bergan murojaatlarni ro'yxatga olmaslik yoki jinoyat ishini qo'zg'atishni rad etish to'g'risidagi qarorlarni noqonuniy qabul qilish holatlari tahlil qilingan. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2023-yilda Prokuratura organlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atishni rad qilish haqidagi qarorlarning qonuniyligi o'rganilganida ichki ishlar organlari tomonidan 5 710 ta jinoyat aniqlanib, ushbu noqonuniy qarorlar bekor qilingan holda qat'iy hisobga qo'yilishi ta'minlangan. *(sotsiologik so'rov ishtirokchilarning 48 % – amaliyotda shu kabi muammolar xodimlar tomonidan ko'p kuzatilayotganligini ta'kidlashgan).*

ikkinchidan; ichki ishlar organlari boshliqlari, sohaviy xizmat rahbarlari tomonidan profilaktika inspektorlarining vakolatiga doir bo'lmagan ishlarga yoki xizmat hududidan boshqa joylarga jalb etilishi oqibatida, nazoratsiz va ochiq qolgan mahallalarda huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar tomonidan jinoyatlarni osonlik bilan sodir etilishi, shuningdek bu borada biriktirilgan mahalla hududlarida jinoyatchilik salmog'ining ortib ketganligi va huquqbuzarliklar profilaktikasi chora-tadbirlarini yetarlicha ta'minlamaganlik uchun profilaktika inspektorlariga nisbatan intizomiy jazo choralari ko'rilishi kabi tashkiliy ishlarda uchrayotgan muammolar yoritib berilgan. *(sotsiologik so'rov ishtirokchilarning 69 % – shu kabi topshiriqlarni berayotgan rahbarlarning ko'pligi va sohaviy xizmatlarga aloqasi yo'qligini ta'kidlashgan).*

uchinchidan, profilaktika (katta) inspektorlarini vakolatlari doirasiga kirmaydigan vazifalarga jalb etilishi quyidagi salbiy holatlarni yuzaga keltiradi: a) oldindan rejalashtirilgan ishlarni bajarish uchun vaqtining yetishmasligi; b) ish hajmining ko'pligi va biriktirilgan hududlarda kam bo'lganligi sababli yosh xodimlarga amaliy ish tajribalarini o'rgatish va ustoz-shogird an'anasiga muvofiq belgilangan chora-tadbirlarni ta'minlashga ulgurmayotgani; v) profilaktik hisob va ma'muriy nazoratdagi ilgari sudlangan (o'ta xavfli retsivist) shaxslar bilan yakka tartibdagi profilaktik chora-tadbirlarni yetarlicha olib borilmasligi natijasida mahalla hududlarida takror jinoyatlar sodir etilishi asoslantirilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda takror sodir etilgan jinoyatlarning soni asosan, 2024-yilda 454 418 ta profilaktika hisobdagi 1489 nafar hamda 21 829 ta ma'muriy nazoratda turgan 920 nafar shaxslarning xissasiga to'g'ri kelgan.

Sotsiologik so'rov ishtirokchilariga, *“Sizningcha, ilgari sudlangan o'ta xavfli retsivist shaxslarga nisbatan qanday toifadagi xodimlar profilaktik hisob va ma'muriy nazorat ishini yuritishi lozim?”* – degan savolga 72 % – muayyan sohada uzoq yillar faoliyat yuritgan, amaliy ish tajribasiga ega bo'lgan xodimlar tomonidan yuritishi lozim” deb ta'kidlashgan.

Dissertant O'zbekiston Respublikasining “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”gi qonunini tahlil qilib, “O'ziga nisbatan huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi chora-tadbirlari qo'llanilayotgan shaxslarning huquq va

majburiyatlari” yuzasidan ularni huquqlari ko‘pligi hamda majburiyatlarga kelganda esa mavhum ko‘rinishdaligi hamda bu borada mavjud majburiyatlarni qayta ko‘rib chiqish lozimligi, shuningdek o‘ziga nisbatan huquqbuzarliklarning yakka turdagi profilaktikasi chora-tadbirlari qo‘llanilayotgan shaxslarning tuzalish yo‘liga o‘tmagan yoki o‘zida huquqbuzarlik sodir etishga moyilligini saqlab qolgan toifalarining majburiyatlarini belgilovchi yangi normalarni kiritishni taklif etmoqda (*ushbu taklif so‘rovga jalb etilganlarning 82 % – tomonidan ijobiy baholangan*).

Mazkur bobning ikkinchi paragrafi “*Huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslarning tuzalish yo‘liga o‘tganligi mezonlarining tahlili*” deb nomlanib, unda ushbu shaxslarning tushunchalari va mezonlarini aniqlash hamda ular bilan ishlashning o‘ziga xos jihatlarini ilmiy adabiyotlar va qonun hujjatlari tahlili asosida yoritib berilgan.

Dissertatsiya ishida huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslarning tuzalish yo‘liga o‘tganlik belgilari borasida sotsiologik so‘rovga jalb etilganlarning 36 % – “*ma‘muriy nazorat, profilaktik hisob va probatsiya nazorati davrida huquqbuzarliklar sodir etmagan va o‘zining ijobiy xulq-atvori tufayli ushbu hisoblardan o‘z vaqtida yechilgan shaxslar*”, deb ta‘kidlashgan.

Dissertant tuzalish yo‘liga qat‘iy o‘tmaganlarni: a) oshkora tuzalish yo‘liga o‘tmagan shaxslar; b) nooshkora tuzalish yo‘liga o‘tmagan shaxslar guruhlariga ajratgan. Bu borada sohaviy xizmat xodimlar tomonidan tuzalish yo‘liga o‘tmagan shaxslar uchun qo‘llashi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar tizimini 5 ta guruhga alohida tartibda tizimlashtirgan.

Uning xulosasiga ko‘ra, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslarning tuzalish yo‘liga o‘tganligining belgilari: *birinchidan*, shaxsning g‘ayriijtimoiy xulq-atvorini ijobiy tomonga o‘zgarishi va qilmishidan chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lganlik alomatlarining namoyon bo‘lishi yuzasidan ishonchli (ish, yashash joylari va tegishli davlat organlari) ma‘lumotlarning mavjudligi; *ikkinchidan*, shaxslarga nisbatan huquqbuzarliklar profilaktikasining ijobiy ta‘minlanishi natijasida shaxs, jamiyat va davlatga nisbatan yetkazilgan (ma‘naviy, jismoniy va moddiy) zararni o‘z vaqtida qoplaganligi va o‘zida ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo‘qotganligi; *uchinchidan*, shaxsning profilaktik hisob, ma‘muriy nazorat va probatsiya nazoratida bo‘lgan, shuningdek sudlanganlik muddati davrida hech qanday huquqbuzarlik sodir etmaganligini; *to‘rtinchidan*, aybni bo‘yniga olish to‘g‘risida arz qilish, chin ko‘ngildan pushaymon bo‘lish yoki jinoyatni ochish uchun faol yordam berish lozimligini asoslantirgan.

Dissertantning fikricha jazoni ijro etish muassasalarida muddatini o‘tayotgan mahkumlar uchun ishlab chiqilgan tuzalish yo‘liga o‘tganlik mezonlarini tajriba sifatida ma‘muriy nazorat, profilaktik hisob va probatsiya nazoratidagi shaxslar uchun ham ishlab chiqishni, shuningdek ularni huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir qonunchilikka yangi normalar sifatida kiritish lozimligini taklif qilgan.

Tadqiqotchi milliy va xorij davlatlari qonunlarining tahlili va shu yo‘nalishda faoliyat olib borgan milliy olimlar: Q.R. Abdurasulova, Sh. Aliyev, H.E. Axmedov, D.M. Usmonov, I. Ismailov, M.J. Eshnazarov va K. Rasulevlar; Xorij olimlaridan: Yu. Antonyan, Maksim Rostislavovich va G.M. Minkovskiy

kabi olimlarning ilmiy nazariyaga oid qarashlariga asoslangan holda “tuzalish yo‘liga o‘tgan shaxs” tushunchasiga nisbatan mualliflik ta’rifi ishlab chiqilgan bo‘lib, unda “*Tuzalish yo‘liga o‘tgan shaxs* – bu, sodir etgan huquqbuzarligi oqibatida o‘ziga nisbatan profilaktik hisob va ma’muriy nazorat yuritilishi, shuningdek jazodan ozod qilingan hamda sudlanganlik muddati davomida huquqbuzarlik sodir etmagan va sog‘lom turmush tarziga qaytgan aqli raso jismoniy shaxs” (*ushbu taklif so‘rovga jalb etilganlarning 48 % – tomonidan ijobiy baholangan*).

Dissertant shu bilan birga probatsiya sohasida O‘zbekiston Respublikasining “Probatsiya to‘g‘risida”gi qonuniga “probatsiya nazoratidagi tuzalish yo‘liga o‘tgan shaxs” tushunchasini kiritishni taklif qilib, “*Probatsiya nazoratidagi tuzalish yo‘liga o‘tgan shaxs* – bu, o‘ziga nisbatan sud tomonidan o‘rnatilgan majburiyat talablarini bajargan, mehnatga halol munosabatda bo‘lgan, shuningdek jamiyatda o‘rnatilgan yurish-turish qoidalariga rioya qilgan hamda nazorat ostidagi muddati davomida huquqbuzarlik sodir etmagan jismoniy shaxs” (*mazkur taklif so‘rovnomaga jalb etilganlarning 74 % – tomonidan ijobiy baholangan*).

Mazkur bobning uchinchi paragrafi “*Huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar bilan ishlash bo‘yicha hamkorlikning bugungi holati*” deb nomlanib, unda ichki ishlar organlarining sohaviy xizmat subyektlari o‘rtasida hamkorlikning turlari va shakllarini ta’sirchan ta’minlash yuzasidan taklif va tavsiyalar ilmiy asoslantirilgan. Bu borada hamkorlik shakllarining samaraliligi xususida, sotsiologik so‘rovnomaga jalb etilganlarning 67 % – “*o‘zaro axborot almashish, amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlarni birgalikda rejalashtirish, qo‘llash va tahlil qilish*”, deb ta’kidlashgan.

Tadqiqotchi ma’muriy nazorat o‘rnatilgan huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslarga nisbatan hamkorlikda ishlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini 9 ta guruhga ajratib, sohalar o‘rtasidagi hamkorlik ketma-ketligini tizimlashtirgan.

Tadqiqot ishida ichki ishlar organlari va sog‘liqni saqlash bo‘limlari bilan hamkorlikda profilaktik chora-tadbirlar doirasini asosiy ikki turlarga: 1) *tibbiy* – kasalliklarning oldini olishga qaratilgan tadbirlar majmui; 2) *huquqiy* – huquqbuzarlik, shu jumladan, jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui tahlil qilingan: *birinchidan*, axloqqa qarshi huquqbuzarlik sodir etishga moyil (*fohishalar, besoqolbozlar va tanosil kasalligiga chalinganlar*) bo‘lgan shaxslarni (“Oriyat” maxsus profilaktika chora-tadbirlari orqali) aniqlash, ularni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish orqali, doimiy nazoratda bo‘lishiga; *ikkinchidan*, kuch va vositalardan samarali qo‘llash orqali huquqiy ta’sir choralari (*ma’muriy va jinoiy javobgarlik*) o‘z vaqtida ta’minlash; *uchinchidan*, surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka muhtalo bo‘lgan ma’muriy nazorat ostidagi shaxslarni aniqlab, tegishli asoslarga ko‘ra ularning majburiy davolanishini ta’minlash; *to‘rtinchidan*, fuqarolarning xavfsizligini ishonchli ta’minlash va ularni OIV, zaxm, so‘zak va boshqa kasalliklardan yuqtirib qolish holatlarining oldini olish hamda ushbu aniqlangan ma’lumotlar bo‘yicha o‘zaro axborot almashish ijtimoiy muhitni barqarorlashtirishga xizmat qilinishi tahlil qilingan.

Tadqiqotchi jinoyatchilikka qarshi kurashishda tezkor-qidiruv xizmatlari tezkor vakillarining huquqbuzarlik sodir etish xavfi yuqori bo'lgan va huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar toifalariga nisbatan profilaktika inspektorlari bilan hamkorlikdagi tezkor-qidiruv tadbirlarni 3 ta, profilaktika inspektorlari ta'limni boshqarish organlari va ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda umumta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy profilaktik ishlarni 6 ta, shuningdek voyaga yetmagan va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini sohaviy xizmat subyektlari bilan hamkorlikda ta'minlash yuzasidan 5 ta chora-tadbirlarni amalga oshirish lozimligi bo'yicha takliflarni ilgari surgan.

Uning hulososiga ko'ra axborot almashinuvi shaklidagi o'zaro hamkorlikni ta'minlash yuzasidan quyidagilarni: *birinchidan*, huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi mavjud kuch va vositalarning behuda sarflanishining oldini olish va tezkorlikni ta'minlash uchun sohalar o'rtasida elektron axborot almashuvi tizimini yaratish; *ikkinchidan*, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar bilan ishlashdagi muammolarning yechimi sifatida, ular bilan ishlash tartib-qoidalari va sohalar o'rtasidagi hamkorlikni o'rnatish tizimlarning ketma-ketligini ta'minlash va ular yuzasidan tushunchalarga ega bo'lish uchun profilaktika inspektori, post-patrul va yo'l-patrul xizmati xodimlarning planshetlarida alohida elektron platforma yaratish lozimligini asoslantiradi. (*ushbu taklif so'rovnomaga jalb etilganlarning 88 % – tomonidan ijobiy baholangan*).

Dissertatsiyaning **“Huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar bilan ishlash faoliyatini takomillashtirish yo'nalishlari”** deb nomlangan uchinchi bobining birinchi paragrafi *“Huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar bilan ishlash faoliyatiga oid xorijiy tajribalar”* deb nomlanib, unda Germaniya, AQSH, Kanada, Rossiya Federatsiyasi va boshqa davlatlarning huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish borasidagi to'plagan tajribani o'rganish va shu asosida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olishning ta'sirchan tizimini yaratish, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish va zamonaviy tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish muammolarining ilmiy yechimlarini topish lozimligi tahlil qilingan.

Tadqiqotchi Rossiya Federatsiyasining “Politsiya to'g'risida”gi Federal qonunini tahlili asosida, politsiya xodimlari “huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan: a) ozodlikdan mahrum qilish joylaridan ozod qilingan shaxslar; b) ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan mahkumlar; v) sinovga hukm qilingan (axloq tuzatish ishlariga) mahkumlar; s) boshqalar uchun xavf tug'diradigan ruhiy kasalliklardan aziyat chekadiganlar; d) boshqalarga xavf tug'diradigan alkogolizm yoki giyohvandlik bilan og'rikan shaxslar bilan individual profilaktika ishlarini olib borishi shart” ekanligini e'tirof etadi.

Ushbu qonunchilikning huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan shaxslar bilan ishlashning eng qiziqarli tomoni shundan iboratki, politsiya xodimlari uchun yuqoridagi toifalar bilan aniq ishlashga doir o'quv qo'llanmalar ishlab chiqilgan. Xodimlar ushbu o'quv qo'llanmalar orqali huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar bilan ishlash va huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkon beruvchi hududlarda faoliyat olib borishadi. Shuningdek, Germaniya davlatining

politsiya amaliyoti tahlil qilinib, unda “huquqbuzarliklarning yuzaga kelishida huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar himoyasiz jabrlanuvchi yoki obyekt bilan to‘qnashganda sodir etiladi, degan g‘oyaga asosan ushbu toifalar bilan ta’sirchan ishlash faoliyati quyidagi chora-tadbirlarga ajratiladi:

birinchidan – huquqbuzarliklarning oldini olishda huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslarda ijtimoiy adolat tuyg‘usining shakllantirilishi;

ikkinchidan – huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslarning jinoiy tajovuzlaridan saqlanishning qonuniy vositalarini (chora-tadbirlarini) politsiya tomonidan aniq amalga oshirilishi.

uchinchidan – huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo‘lgan shaxslarning g‘ayrihuquqiy qilmishi uchun jazolash yoki qayta ijtimoiy hayotga moslashtirish” jarayonini amaliyotga joriy etish lozimligi ko‘rsatiladi.

Dissertant AQShda shaxslarni, oilani, uy va mol-mulklarini huquqbuzarliklarga moyil shaxslarning jinoiy tajovuzlaridan himoya qilish mavzularida ko‘plab mashhur qo‘llanmalar mavjudligini, mazkur turdagi qo‘llanmalar politsiya organlari tomonidan hududlarda ommaviy ravishda tarqatilishi hamda fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish orqali huquqbuzarliklarni oldini olish va bunday vaziyatga tushib qolganda qanday harakatlarni amalga oshirish lozimligini ochib berilgan.

Tadqiqotchining xulosasiga ko‘ra, Rossiya FR va AQSh davlatlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida politsiya xodimlari uchun huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar bilan ishlash sohasida tayyorlangan alohida o‘quv qo‘llanmalari bo‘yicha yurtimizda ham huquqbuzarlik sodir etish xavfi yuqori bo‘lgan shaxslar bilan ishlash yuzasidan *“Jinoyat olami vakillarining turmush tarzi, yaqin aloqalari, axloq normalari va ularga nisbatan profilaktik chora-tadbirlarni qo‘llash”* nomli o‘quv-uslubiy qo‘llanma tayyorlash va amaliyot xodimlari uchun o‘quv seminar trening mashg‘ulotlarini tashkil etish lozimligini taklif etadi. (*ushbu taklif so‘rovnomaga jalb etilganlarning 78 % – tomonidan ijobiy baholangan*).

Ushbu bobning ikkinchi paragrafi *“Huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar bilan ishlash faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari”* deb nomlanib, unda yurtimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar ya’ni, “Xavfsiz shahar”, “Xavfsiz turizm”, “Xavfsiz xonadon” tizimlari joriy etilganligi, shuningdek fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlash lozimligi, bu borada ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlari tomonidan *“huquqbuzarlik sodir etish xavfi yuqori”*, *“huquqbuzarlik sodir etishga moyil”*, *“huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli past”* va *“tuzalish yo‘liga o‘tgan”* shaxslar toifalari bilan ta’sirchan ishlash va qonun hujjatlarida uchrayotgan muammolar yechimini hal etish yuzasidan huquqbuzarliklar profilaktikasiga doir chora-tadbirlar tizimini takomillashtirish yuzasidan yoritib berilgan.

Dissertatsiya ishida profilaktika inspektorlarining xizmat hududidan tashqarida bo‘lgan taqdirda ijtimoiy profilaktikaning boshqa subyektlari tomonidan huquqbuzarliklar sodir etish ehtimoli yuqori bo‘lgan shaxslar bilan profilaktik chora-tadbirlarni olib borishda qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shu sababli, mazkur toifalarga nisbatan tezkor vakillari tomonidan tezkor-qidiruv tadbirlarini

ta'minlash yuzasidan ularning ijtimoiy profilaktika subyektlariga ko'maklashib borishlari tajriba sifatida taklif etilgan. (*ushbu kiritilayotgan taklif so'rovnomaga jalb etilganlarning 84 % – tomonidan ijobiy baholangan*).

Dissertant ishki ishlar organlari sohaviy xizmatlarining maxsus profilaktika chora-tadbirlari natijasida ushlab kelingan huquqbuzarliklar sodir etish xavfi yuqori bo'lgan shaxslar bilan 6 ta va ma'muriy nazorat, profilaktik hisob va probatsiya nazoratidagi shaxslar toifalari o'rtasida yakka tartibdagi profilaktik chora-tadbirlarni tashkil etishda qat'iy rioya etilishi shart bo'lgan talablarni 6 ta hamda shaxsning huquqbuzarlik sodir etishga moyilligini aniqlash metodlarini 6 ta guruhga ajratgan. Yuqoridagilardan kelib chiqib, huquqni qo'llash amaliyoti xodimlari uchun "*Huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar bilan ishlashni tashkil etish*" yuzasidan elektron platforma ishlab chiqilgan.

Shuningdek, tadqiqot ishida ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlarining profilaktik chora-tadbirlarini qo'llashda huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslarning alohida toifalaridan kelib chiqib, yagona elektron ro'yxatni yuritish va axborot tizimi orqali davriy monitoring qilib borish tartibini yo'lga qo'yilishi: *birinchidan*; profilaktika inspektorlari nazorati ostida bo'lgan toifalar haqidagi bir necha ma'lumotlarni kiritib borishni osonlashtiradi; *ikkinchidan*, ichki ishlar organlari sohaviy xizmat subyektlari o'rtasida axborotlarni almashishni tezlashtiradi; *uchinchidan*, xodimlar sarf-xarajatlarining kamayishi bilan birga ularning ish hajmini soddalashtiradi; *to'rtinchidan*, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslarni bevosita va bilvosita "profilaktik kuzatuv"ga olish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkinligi tahlil qilingan.

Tadqiqotchining fikricha, shaxsga nisbatan "profilaktik kuzatuv" chora-tadbirlarini olib borishni ma'muriy nazorat, profilaktik hisob va probatsiya nazoratida bo'lgan va ushbu hisoblardan yechilgan, shuningdek ilgari o'ta xavfli (terrorizm va ekstremizm, qotillik, nomusga tegish, bosqinchilik va boshqa o'gir turdagi jinoyatlarni sodir etgan) retsivist maqomida bo'lgan shaxslar o'rtasida ham olib borish lozimligi hamda bu borada yangi qonun normalarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyatga egaligini asoslantiradi. Shuningdek, dissertant "profilaktik kuzatuv" chora-tadbirlarini bevosita va bilvosita amalga oshirish lozimligi yuzasidan guruhlariga tizimlashtirgan.

Yuqoridagilar inobatga olinib, "*profilaktik kuzatuv*" tushunchasiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan "Profilaktik kuzatuv – bu profilaktik hisobdan chiqarilgan, sudlanganlik muddati tugagan, shuningdek ma'muriy nazorat muddati tamom bo'lgan shaxslarda g'ayriijtimoiy xulq-atvor va huquqbuzarlik sodir etishga moyillik saqlanib qolganligi munosabati bilan ularni bevosita va bilvosita profilaktik kuzatuvga olish va amalga oshirish" (*mazkur taklif so'rovnomaga jalb etilganlarning 90 % – tomonidan ijobiy ma'qullangan*).

XULOSA

Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar bilan ishlash faoliyatini takomillashtirishga doir quyidagi ilmiy-amaliy xulosa, taklif hamda tavsiyalar ilgari surildi:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1. “huquqbuzarlik sodir etish xavfi yuqori”, “huquqbuzarlik sodir etishga moyil”, “tuzalish yo‘liga o‘tgan shaxs”, “probatsiya nazoratidagi tuzalish yo‘liga o‘tgan shaxs”, “profilaktik kuzatuv” va “o‘ziga nisbatan huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi chora-tadbirlari qo‘llanilayotgan shaxslarning huquq va majburiyatlari” yuzasidan mualliflik ta‘riflari ishlab chiqilgan va huquqbuzarliklar profilaktika faoliyati fani doirasida muomalaga kiritilishi asoslantirilgan.

2. Huquqbuzarliklar sodir etish xavfi yuqori bo‘lgan shaxslar toifalari tizimlashtirildi:

- xavfli va o‘ta xavfli retsdivistlar;
- jinoyat olami vakillari va ularning yozilmagan qoidalariga bo‘ysunuvchilar;
- terrorizm va ekstremizm jinoyatlarini sodir etgan va ularning yot va zararli g‘oyalari ta‘sirida bo‘lganlar;
- jinsiy daxlsizlikka tajovuz qilishga moyil “pedofillar” ;
- qidiruv e‘lon qilingan, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligiga tahdid solayotgan, surishtiruv, tergov organlaridan va suddan yashirinib yurgan va jinoiy jazodan bo‘yin tovlayotganlar;
- spirtli ichimlik, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarga ruju qo‘yganlar;
- sodir etgan huquqbuzarliklari natijasida ro‘yxatga olinmay qolib ketgan yoki huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlariga murojaat qilmaganlar;
- axborot texnologiyalari sohasida jinoyat sodir etishni daromad manbaiga aylantirganlar;
- buyurtma asosida qotillik qiluvchilar.

3. Huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar toifalari alohida tizimlashtirildi:

- darbadarlik, gadoychilik, ruhiy chetga chiqish;
- ma‘muriy va ilgari jinoiy javobgarlikka ortilgan, hech qayerda ishlamaydigan, moddiy jihatdan yetishmovchilikdan qiynalayotgan, oliy ma‘lumotga ega bo‘lmaganlar, ajrashgan yoki oilali bo‘lmaganlar;
- fohishalar, besoqolbozlar va tanosil kasalligiga chalingan shaxslar;
- tug‘ma ruhiy kasallar, ya‘ni g‘ayriqonuniy harakatlarni amalga oshirishga undaydigan psixologik jihatlarga ega bo‘lgan, murakkab psixologik muhit hukmron bo‘lgan to‘liq bo‘lmagan oilada yashayotganlar;
- yengil yo‘l bilan (qonunga zid ravishda) boylik orttirishga intiluvchilar;
- uyatsiz, buzuq, axloqsiz ishlar bilan shug‘ullanishga moyilligi bo‘lgan, xususan jamoat joylarida besharm kiyimlarda yurgan yoki shilqimlik qilganlar;
- jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan, axloq tuzatish ishlari jazosini o‘tab bo‘lgan yoshlar o‘zining jinoyat sodir etishga moyilligi, turli yot va zararli g‘oyalarga beriluvchanligi bilan ijtimoiy himoya va jamoatchilik nazoratiga muhtoj yoki profilaktik hisob va ma‘muriy nazoratda turganlar.

4. Huquqbuzarliklar sodir etish ehtimoli past bo‘lgan shaxslar toifalari:

- a) og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan (uy-joy sharoitiga ega bo‘lmagan va og‘ir kasal yoki nogironligi bo‘lgan) oilalar;

b) ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan yoki nazoratsiz bolalar;
v) doimiy daromad manbaiga ega bo'lmagan, bedarak yo'qolgan yoxud boshqa sabablarga ko'ra boquvchisi bo'lmagan ehtiyojmand hamda tazyiq va zo'ravonlik tahdidi ostida bo'lgan xotin-qizlar;

d) ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik muammolari mavjud bo'lgan yoshlar.

5. Tuzalish yo'liga o'tmagan shaxslar ikki guruhga ajratildi:

a) *oshkora tuzalish yo'liga o'tmagan shaxslar* – o'ta xavfli retsivist shaxslarning g'arazli maqsadlardan qaytmaganligi, shuningdek yot va zararli g'oyalarga sodiqligini oshkora tarzda da'vo qiluvchi (terrorizm va diniy ekstremizm jinoyatlarini sodir etgan va ularning ta'sirida bo'lgan yoki jinoyat olami vakillari) shaxs;

b) *nooshkora tuzalish yo'liga o'tmagan shaxslar* – o'zining g'ayriijtimoiy xulq-atvori tufayli sog'lom turmush tarziga qaytmagan va g'ayrihuquqiy qilmishi uchun chin ko'ngildan pushaymon bo'lmagan, ammo ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlarining ta'sirchan profilaktik chora-tadbirlari tufayli yolg'ondan tuzalganligini da'vo qiluvchi (profilaktik hisob, ma'muriy nazorat va probatsiya nazoratida bo'lgan va ushbu hisoblardan chiqarilgan) shaxs toifalariga ajratib chiqildi.

6. Huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar toifalarining tuzalish yo'liga o'tganligi belgilari qo'yidagicha tasniflab chiqildi:

birinchidan, shaxsning g'ayriijtimoiy xulq-atvorini ijobiy tomonga o'zgarishi va qilmishidan chin ko'ngildan pushaymon bo'lganlik alomatlarining namoyon bo'lishi yuzasidan ishonchli (ish, yashash joylari va tegishli davlat organlar bergan) ma'lumotlarning mavjudligi;

ikkinchidan, shaxslarga nisbatan huquqbuzarliklar profilaktikasining ijobiy ta'minlanishi natijasida shaxs, jamiyat va davlatga nisbatan yetkazilgan (ma'naviy, jismoniy va moddiy) zararni o'z vaqtida qoplaganligi va o'zida ijtimoiy xavflilik xususiyatini yo'qotganligi;

uchinchidan, shaxsning profilaktik hisob, ma'muriy nazorat va probatsiya nazoratida bo'lgan, shuningdek sudlanganlik muddati davrida hech qanday huquqbuzarlik sodir etmaganligi;

to'rtinchidan, aybni bo'yniga olish to'g'risida arz qilish, chin ko'ngildan pushaymon bo'lish yoki jinoyatni ochish uchun faol yordam berish lozimligi asoslantirildi.

II. Normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishga qaratilgan taklif, tavsiya hamda xulosalar ishlab chiqilgan:

O'zbekiston Respublikasining **“Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida”**gi qonuniga quyidagi qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish.

1) **3-modda birinchi xatboshida** kelgan **“huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxs”** tushunchasini quyidagicha o'zgartirish:

a) **“huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxs** – g'ayriijtimoiy xulq-atvoriga egaligi, shuningdek ijtimoiy, huquqiy va psixologik yordamga muhtojligi sababli ziddiyatli vaziyatlarda huquqbuzarlik sodir etishi mumkin bo'lgan jismoniy shaxs;

3-moddani quyidagi tahrirdagi **birinchi xatboshi** bilan to'ldirish:

b) **huquqbuzarlik sodir etish xavfi yuqori bo‘lgan shaxs** – jinoiy faoliyat turmush tarziga aylangan, jinoiy urf-odat va an‘analarga rioya etuvchi, shuningdek sud tomonidan o‘ta xavfli retsivist deb topilgan jismoniy shaxs;

v) **tuzalish yo‘liga o‘tgan shaxs** – sodir etgan huquqbuzarligi oqibatida o‘ziga nisbatan profilaktik hisob va ma‘muriy nazorat yuritilishi, shuningdek jazodan ozod qilingan hamda sudlanganlik muddati davomida huquqbuzarlik sodir etmagan va sog‘lom turmush tarziga qaytgan aqli raso jismoniy shaxs.

2) **quyidagi mazmundagi 34¹-modda bilan to‘ldirish:**

“34¹-moddasi. Profilaktik kuzatuv

Profilaktik hisobdan chiqarilgan, sudlanganlik muddati tugagan, shuningdek ma‘muriy nazorat muddati tamom bo‘lgan shaxslarda g‘ayriijtimoiy xulq-atvor va huquqbuzarlik sodir etishga moyillik saqlanib qolganligi munosabati bilan ularni bevosita va bilvosita profilaktik kuzatuvga olish va amalga oshirish”.

3) **42-moddaning ikkinchi qismini** quyidagi mazmundagi tushunchalar bilan to‘ldirish:

“O‘ziga nisbatan huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi chora-tadbirlari qo‘llanilayotgan shaxslar:

– huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi organlar va muassasalar mansabdor shaxslarining qonuniy talablarini bajarishi;

– hisob davri davomida jamoat va boshqa joylarda spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, psixotrop yoki aql-irodaga ta‘sir qiluvchi moddalarni iste‘mol qilmasligi;

– g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar va huquqbuzarlik sodir etmasligi;

– huquqni muhofaza qiluvchi davlat organi vakillari tomonidan o‘ziga nisbatan huquqbuzarliklarning yakka tartibdagi profilaktikasi chora-tadbirlari qo‘llanilayotgan shaxslarni xizmat yuzasidan chaqirgan taqdirda o‘z vaqtida yetib kelishi (*uzrli sabablar bundan mustasno*) shart”.

O‘zbekiston Respublikasining **“Probatsiya to‘g‘risida”gi qonuniga** quyidagi qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish.

4) **3-moddasi** quyidagi tahrirdagi **birinchi xatboshi** bilan to‘ldirish:

“Probatsiya nazoratidagi tuzalish yo‘liga o‘tgan shaxs – o‘ziga nisbatan sud tomonidan belgilangan cheklov va taqiqlarga yoki belgilangan majburiyatlarni bajargan, mehnatga halol munosabatda bo‘lgan, shuningdek jamiyatda o‘rnatilgan yurish-turish qoidalariga rioya qilgan hamda nazorat ostidagi muddati davomida huquqbuzarlik sodir etmagan jismoniy shaxs”.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyili asosida mahallalarda ijtimoiy profilaktika tizimi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2024-yil 30-noyabr kunidagi 801-sonli qaror nizomining 5-bob. Yakunlovchi qoidalariga 33-band sifatida quyidagi qo‘shimchani kiritish:

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

5) **33.** “Ichki ishlar orgalarining profilaktik hisob va ma‘muriy nazorat ostida bo‘lgan o‘ta og‘ir jinoyat sodir etgan shaxslarni, shu jamladan, o‘ta xavfli resivistlarga nisbatan ijtimoiy profilaktika chora-tadbirlarini amalga oshirishda

tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi xodimlarning ishtirok etishi ta'minlanishi zarur".

III. Huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar bilan ishlash faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar:

1. Tezkor vakillar tomonidan huquqbuzarliklar sodir etish xavfi yuqori bo'lgan shaxslarga nisbatan maxsus-tezkor tadbirlarni quyidagi tizimlilik asosida amalga oshirishlari tavsiya etiladi:

– maxsus-tezkor tadbirlar o'tkazilayotgan joylarga yakka-yolg'iz holda bormaslik (kuch va vositalardan unumli foydalanish);

– maxsus-tezkor tadbirlar jarayonida shaxsiy daxlsizlik qoidalariga rioya etilishi (sog'lig'i va hayotiga xavf solinishini oldini oladi);

– maxsus-tezkor tadbirlarni ishonchsiz va yetarli bo'lmagan ma'lumot asosida o'tkazishga yo'l qo'ymaslik (maxsus tadbirlarni buzilishi, xizmat intizomiga tortilishi yoki jinoyatlarni takror sodir etilishi kabi salbiy holatlarning oldini oladi);

– o'tkazilgan maxsus-tezkor tadbir yuzasidan to'plangan tergovga qadar tekshiruv ish hujjatlarini sifatli shakllantirilishi (tergov va sud organlari tomonidan ushbu hujjatlarni qaytarib yuborilmasligiga olib keladi).

2. Tezkor vakillar tomonidan maxsus-tezkor tadbirlar natijasida ushlab kelingan huquqbuzarliklar sodir etish xavfi yuqori bo'lgan shaxslar bilan yakka tartibdagi suhbatlarni quyidagi tizimlilik talablari asosida amalga oshirish lozim:

a) ularga o'zini tanishtirishi, nima sababdan ushlab kelinganligini aytishi, huquq va majburiyatlarini tushuntirishi, qonuniy vakil bilan ta'minlash va davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish;

b) suhbat jarayonida sabrlik va vazminlik bilan jiddiy munosabatga kirishishi va qonun doirasidan chetga chiqib ketmasligi shart;

v) shaxsning psixologik tomonlarini har tomonlama o'rganishi va har bir savolga berayotgan javoblarini takror tekshirish uchun audio va video yozuvli texnika vositalaridan unumli foydalanish;

g) tergovga qadar surishtiruv ishlariga faol yordam berilgu-dek bo'lsa, ularga qonun doirasida yengillik bo'lishi, biroq aksi sifatida javobgarlikning muqarrarligi yuzasidan ogohlantirish;

v) tergovga qadar tekshiruv ish hujjatlarini sifatli shakllantirish hamda qonuniy qaror qabul qilish uchun tergov va sud organlari ixtiyoriga topshirish lozim.

3. Profilaktika inspektori profilaktik hisob va ma'muriy nazoratda bo'lgan huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar bilan yakka tartibda individual ishlashning samaradorligini oshirishda quyidagilarga amal qilishi kerak:

a) shaxs bilan yaqindan psixologik aloqa o'rnatishi;

b) uning muammolariga jiddiy e'tibor berishi va oilasi hamda sog'lig'i haqida so'rashi;

v) yashash joyining shart-sharoitlarini bilib olishi hamda yaqin aloqalari bilan munosabatlari haqida so'rashi;

g) uning bandlikka va kasbiy faoliyatiga qiziqish bildirishi,

d) tarjimai holi ma'lumotlari, ba'zida muvaffaqiyatlari-hayotining shaxsiy sohalari yuzasidan erkin suhbatlarni olib borilishi,

e) sodir etgan ma'muriy va jinoiy qilmishlari shaxs, jamiyat va davlatga nisbatan salbiy holatlarni keltirib chiqarishini tushuntirishi;

k) mamlakatda olib borilayotgan islohotlar yuzasidan ularga vatanga bo'lgan muhabbat tuyg'usini uyg'otilishi kelgusida yakka tartibdagi profilaktik chora-tadbirlarning natijadorligini oshirishga va ularning huquqni muhofaza qiluvchi organ vakillariga nisbatan ijobiy fikrlarini shakllanishiga sabab bo'ladi.

4. Huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslarni tuzalish yo'liga kiritishda profilaktik chora-tadbirlarning tizimlilikini quyidagicha amalga oshirish:

a) huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslarga o'zini do'stdek tutishi, ya'ni, huquqbuzar sifatida qarash mumkin emas (o'zini undan baland qo'ymaslik, oddiy namunali qonunga itoatkor shaxsga qaraganday huquqiy maslahatchi sifatida munosabatga kirishishi);

b) yakka tartibdagi profilaktik suhbat jarayonini ko'tarinki ruhda olib borish (o'tgan jinoiy qilmishini yuziga solmaslik va ijobiy xulq-atvorini doimiy tarzda o'ziga aytib borishi);

v) unga nisbatan rag'batlantirish usullaridan foydalanish (mahallada tashkil etilgan davra suhbatlari, seminar trening va boshqa tashkiliy ishlarga jalb etgan holda ish va yashash manzillariga tashakkurnoma xatlarini yuborib turishi);

g) uning ijtimoiy holatidan kelib chiqib, tegishli davlat organlari va tashkilotlar bilan hamkorlik o'rnatgan holda, unga huquqiy, ijtimoiy, psixologik, tibbiy, pedagogik va boshqa turdagi yordam ko'rsatish (boqimandalik ruhidan chiqarish, doimiy ish bilan band qilish va davlatning olib borayotgan siyosatiga nisbatan ijobiy fikrini uyg'otishi);

d) na'munali hulq-atvori uchun profilaktik hisobdan muddatidan oldin chiqarilishi (hisobga olingan davrida huquqbuzarlik sodir etmaganligi, ish va yashash joylaridan, shuningdek "Mahalla yettiligi" hamda tegishli davlat organlarining ishonchli ma'lumotlari asosida) lozim.

5. Ishki ishlar organlari sohaviy xizmatlarining huquqbuzarliklar sodir etish xavfi yuqori bo'lgan va huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar bilan yakka tartibdagi profilaktik chora-tadbirlarni ta'sirchan tashkil etish hamda xizmat binosida qat'iy rioya etilishi shart bo'lgan talablarni quyidagi tizimlilik asosida amalga oshirish.

1) Ma'muriy nazorat, profilaktik hisob va probatsiya nazoratidagilar bilan:

a) yakka tartibdagi suhbatga oldindan tayyorgarlik ko'rish (ularning bergan savollariga uyaliq qolmaslik va obro'yini tushishini oldini oladi);

b) suhbat jarayoniga xolislar ishtirokida yoki video kuzatuv vositalaridan unumli foydalanish (xodimlarga nisbatan tuhmat va boshqa ko'ngilsizliklarni kelib chiqishini oldini oladi);

v) xizmat stoli ustiga tig'li va temir jisimli vositalarni hamda zarur bo'lgan ish hujjatlarni qoldirmaslik (huquqbuzarlikka moyil shaxslarning o'ziga nisbatan tan jarohatlar yetkazilishi va to'plangan yig'ma jildlarni nobud bo'lishini oldi olinadi);

g) suhbat jarayonining har bir holatiga obyektiv baho berish (korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qo‘l urmaslik);

d) shakllantirilayotgan ish hujjatlarining sifatli bo‘lishini ta‘minlash (nazorat qiluvchi va manfaatdor subyektlarga savol tug‘ilmaslikni oldini oladi);

e) shaxsning tuzalish yo‘liga kirgan va kirmaganligi yuzasidan hisoblardan chiqarish yoki uzaytirish (hisob davrida huquqbuzarlik sodir etgan yoki etmaganligini inobatga olish).

2) *Maxsus-tezkor tadbirlar natijasida ushlab kelingan huquqbuzarliklar sodir etish xavfi yuqori bo‘lgan shaxslar bilan:*

1) shaxsni xolislar ishtirokida shaxsiy tintuv qilish va holat yuzasidan bayonnoma rasmiylashtirish (qimmatbaho buyumlar va daliliy ashyolarning yo‘qolishini oldini oladi);

2) shaxsni ikki yoki undan ortiq xodimlar ishtirokida qo‘liga kishan taqish hamda xizmat xonaning deraza va eshiklarini mustahkamlash (shaxsning boshqalarga nisbatan tan jarohat yetkazish va qochib ketishining oldi olinadi);

3) shaxs tomonidan sodir etilishi mumkin bo‘lgan suitsid holatlarini oldini olish (doimiy kuzatuvda bo‘lishini ta‘minlash);

4) shaxsga nisbatan qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo‘llamaslik (Jinoyat kodeksning 206 va 235-moddalarini buzilishiga olib keladi);

5) shaxsning uyidan yoki boshqa joylardan kelgan oziq-ovqat va buyumlarini sinchkovlik bilan tekshirib o‘tkazish (uning zaharlanib qolish va boshqa salbiy holatlarni oldi olinadi);

6) shaxsga nisbatan to‘plangan ish hujjatlarini tergov va sud organlari ixtiyoriga sifatli topshirish lozim.

6. Ichki ishlar organlari sohaviy xizmatlarining huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar bilan ishlash faoliyatiga doir quyidagi profilaktik chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif etilgan:

1) “Profilatika kuzatuv” chora-tadbirlarini quyidagi tartibda tashkil etish:

bilvosita – shaxsning yaqin aloqalaridan (g‘ayriijtimoiy yo‘nalishga ega bo‘lgan toifalardan), uning yashash (qo‘ni-qo‘shnilari va MFY subyektlaridan), ish, o‘qish joylaridan suhbatlar o‘tkazish va O‘zbekiston Respublikasi IIVda mavjud Huquqiy statistika va tezkor-hisob ma‘lumotlar markazidan ma‘muriy va jinoiy huquqbuzarliklarni sodir etganligi haqidagi malumotlarni olish orqali;

bevosita – shaxs bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yakka tartibda profilaktik suhbat o‘tkazish (ro‘yhat hisobiga olinganlar bilan) yaqin qarindoshlari va qonuniy vakillari ishtirokida ta‘sir o‘tkazish, g‘ayriijtimoiy xulq-atvor va huquqbuzarlik sodir etishga bo‘lgan moyilligini saqlab qolganligi munosabati bilan ayrim toifalarga nisbatan huquqbuzarliklarning maxsus (Oriyat, Davomat, Arsenal, Antiterror, Tig‘ va bosh.) turdagi profilaktik chora-tadbirlarini ta‘minlash.

2) Huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar toifalarining elektron platformasini yaratgan holda ularni aholi gavjum bo‘lgan joylar, shuningdek jamoat transportlarida o‘rnatiladigan sun‘iy intellektlar mavjud bo‘lgan qurilmalarni ichki ishlar organlari va Milliy gvardiya bo‘linmalarining “Situatsion-tahliliy markazlari”ga integratsiyalash orqali jinoyat sodir etish xavfi yuqori

bo'lgan (*terrorizm va ekstremizm va boshqa og'ir turdagi jinoyatlarni sodir etib qidiruvda yurganlar*) shaxslarni aniqlash, shuningdek ular haqida yaqin hududda faoliyat olib borayotgan xodimlarni xabardor qilish va fuqarolarni ogohlantirish tizimini amaliyotga joriy etish.

3) *Huquqbuzarlik sodir etishga moyillikni quyidagi metodlar yordamida aniqlash mumkin:*

a) shaxsning g'ayriijtimoiy hulq-atvori va xatti-harakatlarini baholash orqali;
b) hisobda turgan shaxslarning takror huquqbuzaralika sodir etganligini tekshirish;

v) ommaviy axborot vositalaridan ("Telegram", "Instagram", "Fesebook" va boshqa ijtimoiy tarmoqlardan tarqatilgan video roliklar) yoki fuqarolar bergan ma'muriy va jinoyatga oid habarlarni ko'rib chiqish;

g) ayrim hududlarda bir turdagi yoki turdosh jinoyatlarning (statistik malumotlar asosida) ko'payishini tahlil qilish;

d) shaxsning yaqin aloqalari haqidagi ma'lumotlarni (g'ayriijtimoiy yo'nalishga ega bo'lgan tanishlarini) tekshirish;

e) ayrim toifadagi shaxslarga nisbatan huquqbuzarliklarning yakka va maxsus turdagi profilaktikasini ta'sirchan ta'minlash orqali aniqlanadi.

4) Profilaktika inspektorlari biriktirilgan mahalla hududidan tashqarida bo'lgan yoki boshqa ishlarga jalb etilgan vaqtda, shuningdek probatsiya xizmati va ijtimoiy profilaktika subyektlarning nazoratidagi huquqbuzarliklar sodir etishga moyil shaxslar tomonidan jinoyat sodir etilsa, profilaktika inspektorlariga nisbatan intizomiy javobgarlikka tortish amaliyotini qat'iyan amalga oshirish.

5) Ichki ishlar organlari xodimlariga kelib tushayotgan jinoyatga oid har qanday murojaatlarni qabul qilish va qayd etishni to'liq raqamlashtirish, ya'ni mazkur jarayonda inson omilini istisno qiladigan holatda amalga oshirish tizimini joriy etish.

6) *"Jinoyat olami vakillarining turmush tarzi, yaqin aloqalari, axloq normalari va ularga nisbatan profilaktik chora-tadbirlarni qo'llash"* nomli o'quv-uslubiy qo'llanma tayyorlash va huquqni qo'llash amaliyoti xodimlari uchun o'quv-seminar trening mashg'ulotlarini tashkil etish zarur.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.31/30.12. 2019.Yu.25.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ АКАДЕМИИ МИНИСТЕРСТВА
ВНУТРЕННИХ ДЕЛ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**АКАДЕМИЯ МИНИСТЕРСТВА ВНУТРЕННИХ ДЕЛ РЕСПУБЛИКИ
УЗБЕКИСТАН**

АСЛАНОВ БОБУР ТУХТАЕВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПО РАБОТЕ С ЛИЦАМИ
СКЛОННЫМИ К СОВЕРШЕНИЮ ПРАВОНАРУШЕНИЯ
(НА ПРИМЕРЕ ОРГАНОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ)**

**12.00.14 – Профилактика правонарушений. Обеспечение общественной
безопасности. Деятельность пробации**

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по юридическим наукам**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Кабинете Министров Республики Узбекистан под номером В2023.1.PhD/Yu1005

Диссертация выполнена в Академии Министерства внутренних дел Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (<http://www.dba.uz/tadqiqotchilarga/ilmiy-kengash>) и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Исмаилов Исамиддин
профессор, доктор юридических наук

Официальные оппоненты:

Зиёдуллаев Музаффар Зиёдуллаевич
доктор юридических наук, профессор
Абдурасулова Кумриниса Раимкуловна
доктор юридических наук, профессор

Ведущая организация:

**Институт повышения квалификации
Министерства внутренних дел Республики
Узбекистан**

Защита диссертации состоится 30 апреля 2025 года в 14:30 на заседании Научного совета DSc 31/30.12.2019.Yu.25.02 по присуждению ученых степеней при Академии Министерства внутренних дел Республики Узбекистан. (Адрес: 100197, г. Ташкент, ул. Интизор, 68. Тел./факс: (+99871) 265-22-52; e-mail: info@akadmvd.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Академии Министерства внутренних дел Республики Узбекистан (зарегистрирована под № AD 1516), Адрес: 100197, г. Ташкент, ул. Интизор, 68. Тел.: (+99871) 265-22-52.)

Автореферат диссертации разослан 10 апреля 2025 года.
(Протокол реестра № 10 от 10 апреля 2025 года).

А.С. Турсунов

Председатель ученого совета по
присуждению ученых степеней, доктор
юридических наук, профессор

А.Д. Хусанов

Секретарь научного совета по
присуждению ученых степеней, доктор
философии по юридическим наукам,
доцент

Ш.А. Кулматов

Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению
ученых степеней, доктор юридических
наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Несмотря на осуществляемые в мире меры по борьбе с преступностью и ее предупреждению, у определенной части населения, особенно среди тех, кто оказывается под влиянием возникающих в жизни объективных и субъективных трудностей, наблюдается рост склонности к совершению правонарушений. Такая тенденция прослеживается в количественных показателях лиц, осужденных к лишению свободы за совершение преступлений. В 2024 году в исправительных учреждениях содержится 11,5 миллионов осужденных: в США 1,8 миллиона, в Китае 1,7 миллиона, в Бразилии 840 000, в Индии 573 000, в Российской Федерации 433 000, в Турции 314 000 человек⁸. В Узбекистане насчитывается около 40 000 осужденных, содержащихся в учреждениях по исполнению наказания⁹, что составляет 68 человек на 100 тысяч населения¹⁰. Высокое количество осужденных, *во-первых*, усугубляет ущерб, наносимый личности, обществу и государству в результате совершенных ими преступлений; *во-вторых*, приводит к увеличению затрат (сил и средств) на обеспечение неотвратимости наказания в отношении них; *в-третьих*, требует дальнейшего повышения расходов на систему исполнения наказаний. Например, в США ежегодно на содержание пенитенциарной системы расходуется 80 миллиардов долларов из средств налогоплательщиков¹¹. В России на содержание заключенных уходит 4,2 млрд долларов, в Великобритании - 4 млрд долларов, в Германии - 3,5 млрд долларов, а в Италии и Франции - по 2,9 млрд долларов¹².

Эффективность профилактических мер в отношении лиц, склонных к совершению правонарушений, является одним из основных критериев, определяющих рейтинг государств на международной арене, обеспечивающих права, свободы и законные интересы человека, а также показывающих степень их защищенности от угроз и посягательств. В связи с этим, особую важность приобретают научные исследования, направленные на выявление лиц, склонных к совершению правонарушений, осуществление профилактических мер в отношении них, поиск проблем в сфере работы с данной категорией лиц и путей их решения.

В последние годы в Новом Узбекистане был принят ряд нормативно-правовых актов по профилактике правонарушений. В связи с этим, в постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № 121 «Об утверждении «Дорожной карты» по реализации в 2023 году Стратегии

⁸//URL:[https://www.icpr.org.uk/news-events/2024/prison-populations-continue-rise-many-parts-world-115-million-heldprisons#:~:text=Some%2011.5%20million%20people%20are,\(ICPR\)%2C%20at%20Birkbeck%2C](https://www.icpr.org.uk/news-events/2024/prison-populations-continue-rise-many-parts-world-115-million-heldprisons#:~:text=Some%2011.5%20million%20people%20are,(ICPR)%2C%20at%20Birkbeck%2C)

⁹ //URL:<https://daryo.uz/k/2024/10/27/jazoni-ijro-etish-muassalarida-40-mingdan-ortiq-mahkumlar-ovoz-berishda-ishtirok-etadi-ichki-ishlar-vaziri-orinbosari>.

¹⁰ //URL:<https://aniq.uz/yangiliklar/uzbekistonda-jazo-muddatini-utayotgan-mahkumlar-soni-har-100-ming-aholiga-hisoblaganda-68-nafarni-tashkil-etmoqda>.

¹¹ //URL: <https://ru.wikipedia.org/wiki/>.

¹² В России сидят долго и дешево. Совет Европы отчитался о тюремной статистике. //URL:<https://www.bbc.com/russian/news-56674300>.

развития системы обеспечения общественной безопасности в Республике Узбекистан на 2022-2025 годы» предусмотрено внедрение «института профилактического контроля» на основе существующих институтов административного надзора и профилактического учета.

В нем предусматривается: а) введение института профилактического контроля путем упразднения институтов административного надзора и профилактического учета; б) определение обязательств и ограничений, устанавливаемых для лиц, находящихся под профилактическим контролем, а также оснований их частичного и полного применения¹³. Несмотря на то, что внедрение данного института в первую очередь предусматривало выявление склонности к правонарушениям лиц, находящихся на учете и осуществление общего контроля за их антиобщественным поведением, тот факт, что в «2024 году¹⁴, количество повторных преступлений приходится на долю 1489 лиц из 454 418, находящихся на профилактическом учете, и 920 лиц из 21 829», находящихся под административным надзором вызывает необходимость комплексного и всестороннего научно-теоретического и практического исследования вопросов, связанных с работой с этими лицами.

